

“IKKI ESHIK ORASI” VA “QUYOSH QORAYMAS” ROMANIDA URUSH TASVIRI

Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,

O‘zbek adabiyoti 10.00.02 ixtisosligi bo‘yicha Tayanch doktoranti,

E-mail :ismonovayorqinoy@gmail.com

Tel: +998936773889

Ulug‘ vatan urushi davrida ko‘plab yozuvchilar jurnalist sifatida frontga borib, shiddatli janglarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan. Jangchilar bilan suhbatlar qilib, ular haqida ocherk, maqola, xabarlar yozgan. Urushning dahshati va uning og‘ir asoratlari haqida so‘zlovchi badiiy asarlar uchun materiallar to‘plaganlar.

Vladimir Karpovning oddiy askar Vasiliy Romashkinning og‘ir kunlarini hikoya qiluvchi “Tiliklayin” asari, Erix Mariya Remarkning “Lissabondagi tun”, “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani, Boris Vasilyevning “Ro‘yhatlarda yo‘q edi nomi”, “Ertaga urush edi” asarlari, Yuriy Bondarevning “Issiq qor”, Konstantin Simonovning “So‘ngi yoz”, Mixail Sholoxovning “Ular Vatan uchun kurashdilar”, Svetlana Alekseyevichning “Urushning ayoldan yiroq qiyofasi”, Ernest Xemingueyning “Alvido, qurol” kabi jahon adabiyotining zabardast vakillari tomonidan yozilgan asarlar, shuningdek, o‘zbek adabiyotida Oybekning “Quyosh qoraymas”, Odil Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa...”, Shuhratning “Shinelli yillar”, Rahmat Fayziyning “Hazrati inson”, Said Ahmadning “Ufq” hamda O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanlari urush hamda undan aziyat chekkan insonlar taqdiri haqida so‘zlovchi asarlar bo‘lib, ularning hammasi real voqelikka asoslangan. Chunki asardagi hodisa va tavsilotlarni ayrim yozuvchilar frontga borib yoki front ortida tun-u kun zahmat chekib mehnat qilgan insonlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan, ular bilan suhbatlashgan, ulardan tinglab eshitganlarini to‘plab, roman qilib mujassamlashtirgan. Bu esa yozuvchi asarini yanada jonli, ta’sirli va kitobxon yuragiga yetib borishida katta ahamiyatga egadir.

Manashunday asarlardan biri sifatida biz Oybekning “Quyosh qoraymas” romanini deb tilga olishimiz mumkin. Vaholanki, yozuvchi 1942-yilning dekabridan 1943-yilning mart oyiga qadar G‘arbiy frontda, Moskva, Voronej, Kursk, Belgorod uchun jang qilayotgan o‘zbek jangchilari orasida bo‘lib, ularning mardona kurashlari haqida qayd etgan va bu urush haqidagi buyuk asarning yaratilishiga turtki bo‘lgan.



“Urush xalqlar uchun - ko‘z yoshlar va qon, bu – bevalar va boshpanasizlar, bu – to‘zutilgan kulba, o‘ldirilgan yoshlik va tahqirlangan keksalikdir”, - deydi rus yozuvchisi Vladimir Mayakovskiy. “Quyosh qoraymas” romani urushning insoniyat boshiga ofat keltiruvchi “global qonli voqea” [Naim Karimov] sifatida tasvirlashga bag‘ishlangan asar bo‘lib, unda chinakam urush qahramonlari obrazini ko‘rishimiz mumkin. Asarning bosh qahramonlari taqdirida Oybek urush davridagi muqarrar azob-uqubatlar, yo‘qotish va o‘limni tasvirlaydi. Bu davrdagi fojiali voqealar insonda ichki qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi, uning tashqi dunyo bilan uyg‘unligini buzadi. Buni asar qahramonlari – Bektemir, Asqar polvon, Ali tajang, Safar, Steklov, Nikulin, Dubov, Kamol, Ahmedovlar taqdiri misolida ham ko‘rish mumkin.

Yozuvchini hayajonga solgan va qo‘liga qalam olishga majbur etgan hayotiy material “mavzu” yoki “tema” deb ataladi.¹ “Quyosh qoraymas” romaninig mavzusi Ulug‘ Vatan urushidagi voqea-hodisalar, frontdagi askarlar hayoti va achchiq taqdiri haqidadir. Mavzu **“muallifning tajribasida tug‘iladi, hayot uni yozuvchining qulog‘iga quyadi, ammo uning taassurotlar xazinasida shakllanmagan holda uya solib yotadi va obrazlarni ifodalashni talab etib, yozuvchida uni shakllantirish uchun intilish tug‘diradi”,** - deydi rus yozuvchisi Maksim Gorkiy. Zero, Oybek ham o‘z asarini yaratishda hayotiy materiallardan foydalangan.

Hayotni uning o‘z shakllarida ko‘rsatish vazifasi badiiy asar tilidan obrazlilikni talab qiladi, ya‘ni yozuvchi hayotni, kishilarni, ularning kechinmalarini, tabiat manzaralarini shunday tasvirlashi lozimki, bu tasvir natijasida yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan manzara bizning ko‘z oldimizda ham yorqin namoyon bo‘lsin.² Oybek esa asardagi manzarani qalam bilan yozmaydi, balki, M.Gorkiy aytganidek, chinakam yozuvchilarga xos “so‘z bilan surat chizadi”. Asardagi ushbu jumlar bunga misoldir: **“Qorong‘u tushdi. Jahannamga aylangan jang tingandan so‘ng, tilka-pora bo‘lgan yer ham, dud bosgan osmon ham go‘yo horg‘in, ma‘yus nafas olardi”. Yoki “U yo‘l ustida uyum-uyum g‘isht va tuproq bo‘lgan shaharchalarni, tutunga chulg‘angan xaroba qishloqlarni, pachaqlangan, kuygan yuzlarcha mashinalarni ko‘rdi. Kutilmaganda, osmondan g‘uvillab balo sho‘ng‘iydi. Kunduz batalyonga bir necha bor chovut soladi. Havodan jahannam yog‘iladi. O‘rmon dahshatli shovqinga to‘ladi.**

¹ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. “O‘qituvchi”, - T., 1980, 172-bet.

² Ko‘rsatilgan manba. 210-bet.



Yiqilgan daraxtlarning qarsillashi go‘yo ularning yam-yashil, beozor jonlari nafrat va alamdan ko‘targan faryod kabi tuyuladi...’.

“...Yerlarda yumalab yotgan bolalarning chinqirig‘i, yiqila-yiqila yugurgan ayollarning telba faryodi, xarobazor orasida tirmangan yaradorlar va mayiblarning ingrashi... Havoda fashist kalxatlarining mash‘um sadosi tinmaydi. Bombalar shaharning azamat gavdasini, millionlarcha qo‘llar va boshlarning kuchi, teri, mehnati bilan qaddini ko‘targan muazzam hayotni beomon g‘ajiydi’’. Bularni o‘qir ekansiz, ko‘z oldingizda urushning qahr va g‘azabli, shavqatsiz qiyofasi gavdalanadi. Ushbu holatdan ko‘nglingiz buzuladi, urushga nafratingiz ortadi.

Manashunday ko‘ngilni buzuvchi, urushni bor dahshatini kichik bir jumlada ko‘rsatib bergan yana bir asar borki, unda ham holatlar jonli va ishonarlidir . Ya’ni O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida shunday tasvir bor: **“Lovullab yonayotgan uylar gulxanida bolakayning azobdan qiyshayib ketgan chehrasi aniq ko‘rinardi. Ikki yuzi, qosh-kipriklari kuyib, qorayib ketgan, ko‘zlari vahima bilan bir nuqtaga baqrayib qotib qolgan, faqat lablari, jajji lablari yarim ochiq; hamon “a-a-a” deb chinqirayotganga o‘xshar, kemshik tishlari orasidan g‘archcha tishlab olgan tilining uchi chiqib turardi...’’. Bu jummalarni o‘qigan har bir kitobxonning eti jimirlamay qolmaydi, ko‘zlari esa albatta, jiqqa namlanadi. Bunday voqea-hodisani ko‘z o‘ngingizda jonli namoyon bo‘lishida albatta, yozuvchining badiiy mahorati katta ro‘l o‘ynaydi.**

Urush har qanday odamni shavqatsiz – diyonatsiz qiladi, deydi adib asar qahramoni tilidan: **“Vaqti kelib, to‘ylar qilsak-da, dushman bostirib kelib, bizning bolalarni yondirib yuborsa! Qanaqa bo‘ladi! Tiriklayin kabob bo‘lgan mana shu begunoh bolani ko‘rgan odam dushmandan qasos olmasa, gunohga botmaydimi? Shu bolani ko‘rgan odam dushmanga shafqat qiladimi? Bilmadim, balki, shafqatsiz odam – diyonatsiz bo‘lar. Lekin diyonatli bo‘lish uchun ham shafqatsiz bo‘lish kerak. Men shunga ishondim. Urush meni shunga majbur qildi, Robiya!’’.** Bu esa urush tufayli qordek beg‘ubor, vijdonli va sof qalbi g‘azabga, nafrat va qasos o‘tiga to‘lgan o‘zbek o‘g‘lonining ichki fig‘onidir.

Buyuk adiblarimizdan biri Said Ahmad roman haqida shunday deydi: - **“o‘zbek adabiyoti xazinasida o‘z o‘rnini topgan asarlardan biri bo‘lib qoldi. Bu asar xalqlar boshiga kulfat solgan Ikkinchi jahon urushi to‘g‘risida yozilgan achchiq alamli yilnomadir’’.
Urush haqida yozilgan har bir asar nafaqat bizga tarixdagi voqea-hodisalarni so‘zlaydi, balki minglab insonlarni yostig‘ini qurituvchi urushlarga yo‘l**



qo‘ymaslikka, hayot deb atalgan aziz ne‘matni qadrlashga, osoyista va saodatli o‘tkazishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gorkiy M. Sobraniye sochineniy v tridsati tomax.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. “O‘qituvchi”, - T., 1980.
3. O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. –Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, -2019.
4. O‘zbek adabiy tanqidi. “Turon-Iqbol”, - T., 2011.
5. Oybek. Asarlar. 1-tom, T.,1968, 11-bet.
6. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. Quyosh qoraymas. 8-tom. – T., 1977.

